XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 16-aprel VII-23-40-12-218-K/26 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumani hududidagi Obodonlashtirish boshqarmasiga biriktirilgan tuproq ko‘chalarni shag‘allashtirish va ta’mirlash tadbirlari hamda ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarining miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorning 8-a bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgan.

Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tumanlar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tumanlar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi;

- 8-b bandida mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari hisobidan ichki ko‘chalardagi mavjud tuproq ko‘chalarni shag‘allashtirish hamda ta’mirlash tadbirlarini obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan amalga oshirishga ruxsat berilgan. Bunda obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan mazkur vazifalarni amalga oshirishda har yil uchun tasdiqlanadigan dasturlarning bajarilishi kechiktirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

8-v bandida budjet tashkilotlarining hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish (mavsumiy gul ko‘chatlari ekish, gazon yotqizish, sug‘orish tizimlarini tashkil etish) tadbirlarini budjet tashkiloti va obodonlashtirish boshqarmalari o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuproqqal’a tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish uchun to‘lov tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

- tumanning markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

- tasdiqlangan tariflarning belgilangan tartibda qo‘llanilishini ta’minlash;

- xizmatlardan foydalanuvchi subyektlarga tariflar to‘g‘risida axborot berilishini ta’minlasin.

4. Tuproqqal’a tumani Obodonlashtirish boshqarmasining maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatidan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishi ixtiyoriy qilib belgilansin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

SULTONOV XUSHNUDBEK ROMANBERGANOVICH

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 16-apreldagi
VII-23-40-12-218-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar

Xizmat ko‘rsatiladigan toifa yoki hudud	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
Tuproqqal’a tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’yektlari	Maishiy chiqindilar	m3	58 000
Tuproqqal’a tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’yektlari	Obodonlashtirish xizmatlari	m2	700